



O’QUVCHILARDA MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MAKTAB PSIXOLOGINING O’RNI

Topilova Nilufar Zohidjonovna

Namangan viloyati Kosonsoy tuman MMTB ga qarashli

8-umumiy o’rta ta’lim maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’quvchilarda muloqot, muomila madaniyati va kommunikativlik xususiyatlarini rivojlantirish va yosh ota-onalarga psixologik maslahatlar, yosh xususiyatlari va farzand tarbiyasida zamonaviy usul va metodlar hamda muloqot ko’nikmlarini to’g’ri shakllantirish haqida fikr va mulohazalar keltirib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Nutq, muloqot, erkin so’zlashuv, o’ziga ishonch, samimiy munosabatlar, yosh davrlari, o’ziga xoslik, xarakter, layoqat, iqtidor.

Kirish. Bugungi kunda insonlar o’rtasidagi muloqot va uning umumiy qonuniyatlari inson turmush tarzining barcha jabhalarida boshqa odamlar bilan bo’ladigan o’zaro munosabatining eng muhim shartlaridan hisoblanadi. Odamning aqli, irodasi, hissiy madaniyati, tarbiyalanganligi, nazokatligi va shu kabilarning barchasi muloqot tufayli shakllangan xislatlardir. Shu bilan bir-ga uyqusizlik, bosh og’rig’i, nevrozlar, insultlar, infarktlar va boshqa turli kasalliklar, shuningdek ichkilikka, giyohvand mod-dalarga ruju qo’yish, hatto o’z joniga qasd qilish kabilari ham shu muloqotning natijasidir. Rivoyatlarda aytilishicha, dono Ezop o’z xo’jayinining «Menga avval, dunyodagi eng mazali, shirin taomni keltir va undan so’ng aksincha eng bemaza, yaramas taomni keltir», — deb buyurganida, u har ikkala safar ham qaynatilgan tilni keltirgan ekan. Demak, til, muloqot inson hayotida undan qanday foydalanish, uni qanday ishlatish, qanday tashkil qilishga



qarab, uning uchun eng aziz, eng qadrlı bo'lishi yoki aksincha eng fojiali bo'lishi ham mumkin.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida odamlar kundalik muloqotining tezlashuvi, aholi zichligining ortib borishi, odamlar turmush tarzining jadallashuvi, ularning ruhiy zo'riqish va ta'sirlanuvchanligining kuchayib borishi kabi holatlar bugungi kunda odamlarning muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishini taqozo etadi.

Asosiy qism. Muloqot madaniyatiga birinchidan, o'z-o'zini bilish va boshqa odamlarni tushuna olish qobiliyati, ya'ni ularning psixologik xususiyatlarini to'g'ri baholay olish, ikkinchidan, ularning xulqi va holatlariga nisbatan mos (adekvat) munosabat bildiray olish, uchinchidan, har bir odamga nisbatan u shaxsining individual xususiyatlariga eng ma'qul keladigan muloqot shakli, usuli va stillarini tanlay bilish kiradi.

Muloqot madaniyatini oshirish uchun odamda ilk yoshlikdan boshlab boshqa odamlarga hurmat va samimiyat bilan munosabatda bo'lishni, ularga hamdardlik, insonparvarlik, mehribonlik qilish qobiliyatlarini shakllantirib borish kerak bo'ladi.

Muloqot eng avvalo odamni odam tomonidan idrok qilishidan boshlanadi, unda dastlabki o'zaro baholash amalga oshadi, dastlabki hissiy-intellektual munosabatlar shakllanadi va shundan so'ng tegishli muloqot shakli amalga oshiriladi. Bu jarayonda odam haqidagi ma'lumot, idrok etilayotgan odamning hayotiy tajribasi, u yoki bu munosabat shaklini yoqtirishi yoki yoqtirmasligini yuzaga keltiradigan bevosita emotsional munosabatlar muhim rol o'ynaydi.

Muloqotda buyruq ohangining ustunligi, do'q-po'pisa ohangida keskin shaklda muomalada bo'lish, suhbatdosh nomiga tez-tez bildirilib turiladigan e'tirozlar, uning xatti-harakati va fikrlaridan norozilikni ifodalash, yo'l bermaslik va tajovuzkorlikni namoyon qilish, oilada o'zaro raqobat (yoki hukmronlik-bo'ysinuvchanlik) munosabatlarini yuzaga keltiradi. Befarqlik, e'tiborsizlik, qo'pollik, bemehrlık, behurmatlik kabilar oiladagi samimiy muloqotga putur yetkazadi. Odamlar o'rtasida bir-birlarini tushunishning yetishmasligi ko'pincha muloqotdagi to'siq, shaxslararo munosabatlarni buzilishining



sababi bo‘lib hisoblanadi. Bizlar boshqa odamlar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarimizda nima uchundir, o‘zimizning fikr-o‘ylarimiz, niyatlarimiz suhbatdoshimizga ayon deb hisoblaymiz. Bundan tashqari hamma odamlar ham bolaligidan boshqa odamlarning emotsional holatlarini his qilish, ularni ko‘rish, ular bilan hisoblashish, ularni tushunishga intilishga o‘rgatilavermaydi. Shuning uchun ham ko‘pchilik holatlarda hatto bir-biriga eng yaqin, bir-biriga zid manfaatlarga ega bo‘lmagan odamlar ham hayotda bir-biriga noxushliklarni yetkazishi mumkin. Albatta, bu ishlarni ular bir-birlariga yomonlik, yovuzlik qilish niyatida, yoki o‘zlari yovuz odamlar bo‘lganliklari uchun emas, balki, shunchaki bir-birini tushunmaganliklari «nima qilayotganliklarini bilmaganliklari» uchun sodir etadilar. Shunga o‘xshash holatlar odamlarning o‘zaro munosabatlari, muloqotlarida o‘ziga xos to‘siq vazifasini bajaradi. Ijtimoiy psixologlar muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarning quyidagilarini farqlaydilar: psixologik, vaziyatli, mazmuniy va motivatsion to‘siqlardir.

Psixologik to‘siq — bu sherigiga ma’qul tushmay qolish, tushunilmay qolishdan qo‘rqish, u tomondan inkor etilish va kalaka qilinishdan yoki keskinlikdan qo‘rqish, eng ezgu hislarini va niyatlarini samimiy izhor etishiga javoban qo‘pollik bilan javob berilishi mumkinligidan xavotirlanish kabilar tufayli intellektga oid, mehribonlikka oid, kuchga oid shaxsiy imkoniyatlarini namoyon qilish va amalga oshirishga xalaqit beruvchi, o‘ziga hos ichki psixik tormozdir.

Vaziyatli to‘siqlar — bu suhbatdoshlarning bir xil vaziyatni turlicha tushunishlari, unga turlicha yondashishlari bilan bog‘liq.

Mazmuniy to‘siqlar — odatda suhbatdoshini tushunmaganlik tufayli, uning mazkur jumlasini qanday ma’noda aytilgani, u qanday fikrni ilgari surayapti, nimani nazarda tutayapti, nimaga olib boradi va shu kabi mulohazalarga borish tufayli yuzaga keladi.

Motivatsion to‘siqlar — shunday vaziyatlarda yuzaga keladiki, bunda gapirayotgan odam yo o‘zi bayon qilayotgan fikrning motivini yetarlicha anglay olmaydi yoki u atayin ularni (asosiy motivni) yashirishga harakat qilayotgan bo‘lishi mumkin.



Bulardan tashqari muloqotga to'siq bo'lib, suhbatdoshlarni psixologik madaniyatlik nuqsonlaridan biri, ya'ni ularning na eshitishni va na tinglashni bilmasligi, «teskari aloqaning» yo'qligi xizmat qilishi mumkin. Odamlar o'rtasidagi suhbat ko'pincha ularda aqlning yetishmasligi tufayli emas, balki ularning xudbinligi tufayli: har biri o'zi haqida yoki o'zini qi-ziqtiradigan masalalar haqida gapirishga intilishligi tufayli kutilganidek amalga oshmay qolishi mumkin. Oqibatda bitta «aqli» dialog o'rniga, ikkita behuda, hatto zararli monolog amalga oshadi. Shuning uchun ham muloqotga, suhbatlashish san'atiga o'rganish, ijtimoiy-psixologik madaniyatni egallash, o'zi, o'z kayfiyati va hissiyotlarini boshqara olish, bilim va malakalarini ishlab chiqish, o'z gapi bilan suhbatdoshini qiziqтира olish qobiliyatini rivojlantirishga erishish kerak. Biroq, buning uchun birinchi navbatda har qanday muloqotning umumiy qoidasi: boshqa odamlarning, o'z suhbatdoshlarining ehtiyojlari, xohishlarini qondira oladigan odamgina hurmatga erisha olishligini yodda tutishi lozim.

Albatta, yosh oila yuzaga kelar ekan, ular bir-birlarini sevib turmush qurishganmi, qarindosh-urug'chilik, tanish-bilishchilik, sovchilik, hisob tufaylimi yoki stereotip bo'yichami, qanday bo'lishidan qat'i nazar nikohning ilk kunlarida ularning bir-birlariga nisbatan bo'lgan o'zaro munosabatlarida, er-xotin o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda emotsional ko'tarinki-lik, hissiy rang-baranglik darajasi yuqori bo'ladi. Bir-birlarini ma'lum bir muddat sevishib oila qurgan juftlarda bunday emotsional ko'tarinkilik darajasi nihoyatda yuqori bo'ladi. Chunki ular bir necha yil kutib, intilib yashagan, visol damlariga nihoyat yetishgan bo'ladilar. Bunday juftlar nikohi boshida er-xotin o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda ko'tarinkilik, bir-birlariga emotsional intilish juda yuqori darajada bo'ladi. Nafaqat sevishib oila qurganlar, balki deyarli barcha motivlarga ko'ra oila qurgan yoshlarda ham nikohning boshida er-xotin o'zaro munosabatlarida bir-biriga yaqinlik, bir-birini qadrlash, hurmat qilish nisbatan yuqori bo'ladi. Ularning bir-birlariga, o'z nikohlariga, o'zlarining bo'lajak oilaviy hayotlari haqidagi niyat, orzu, umidlari ezgu, ijobiy bo'ladi. Chunki hech kim va hech qachon ertaga bo'lajak turmush o'rtog'im, yangi oilam-ning yangi a'zolari bilan nizo-janjalga boraman, ular bilan urishaman va oxir-oqibatda oilam buzilib, ajrashib ketaman, deb oila qurmaydi (Ayrim hollarda majburan



oila qurganlar bundan mustasno). Inson oila qurar ekan ahil-inoq yashab, murod-maqсадga yetishishni orzu qiladi, nikoh arafasida va nikoh kechasi ham barcha yaqin birodarlar, qarindosh-urug'lar, to'yga taklif buyurgan mehmonlar yoshlarga ezgu niyatlar bildiradilar. Shuningdek, yoshlar oila qurish arafasida va nikohlarining dastlabki kunlarida turmush o'rtog'i timsolida, o'zining shu orzu-istaklariga, murod-maqсадlariga yetishishda yordam beruvchi, uni qo'llab-quvvatlovchi, uni har soniya, har onda tushunuvchi o'z tabiatiga yaqin odamini tasavvur qiladi va unga imkon qadar shunday ijobiy, iliq munosabatda bo'lish-ga harakat qiladi.

Xulosa o'rnida hayotda hamma narsa ham odam kutganidek bo'lavermaydi. O'sib kelayotga yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalash, ularning orzu istaklarini ro'yobga chiqarish uchun tinimsiz harakat qilmog'imiz kerak. O'quvchilarda to'g'ri muloqot madaniyatini shakllantirishda eng avvalo uning yaqinlari va atrifdagilari biln munosabatlarini tartibga solish eng muhim omil sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.G.Davletshin va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.Toshkent. TDPU.2004y
2. Abduquddusov O.A, Rashidov x.f. "Kasb-hunar pedagogikasi" Toshkent-2009
3. E.G'oziev.Umumiy psixologiya. Toshkent "O'qituvchi" 2010 y
4. M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi. Toshkent. 1998
5. N.Xo'jaev va boshqalar. Kasbiy ta'lim metodikasi.O'quv qo'llanma.Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Toshkent, 2007